

YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA MAHKUM HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJ TAJRIBASI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Jonqobilov Akmal Fayzullaevich

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda yuqori instansiya sudlarida mahkum huquqlarini himoya qilish masalalari, xorijiy davlatlar tajribasi hamda xalqaro standartlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mahkumning protsessual huquqlari, apellyatsiya va kassatsiya institutlarining odil sudlovni ta'minlashdagi o'rni, European Court of Human Rights amaliyoti hamda ilmiy qarashlar o'rganilgan. Shuningdek, mahkum huquqlarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning huquqiy mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot yakunida O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahkum huquqlari, adolatli sudlov, apellyatsiya, kassatsiya, yuqori instansiya sudlari, protsessual huquqlar, European Court of Human Rights, teng qurollar prinsipi, sud nazorati, xalqaro standartlar.

Аннотация: В данной работе исследуются вопросы защиты прав осужденных в судах высших инстанций на основе зарубежного опыта и международных стандартов. Проанализированы процессуальные права осужденных, роль институтов апелляции и кассации в обеспечении справедливого судебного разбирательства, практика European Court of Human Rights, а также научные подходы к данной проблеме. Особое внимание уделено существующим проблемам реализации прав осужденных и механизмам их устранения. По итогам исследования разработаны предложения по совершенствованию уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан.

Annotation. This thesis examines the protection of convicts' rights in higher courts based on foreign experience and international legal standards. The research analyzes procedural rights of convicts, the role of appeal and cassation institutions in ensuring fair trial guarantees, the practice of the European Court of Human Rights, and relevant scholarly approaches. Particular attention is paid to existing problems in the implementation of convicts' rights and possible legal mechanisms for their improvement. As a result of the study, practical recommendations aimed at improving the criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan have been developed.

1. Kirish: Inson huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish har bir demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Buning asosiy ustuni bo'lgan sdil sudlovni ta'minlashda esa sud qarorlarini qayta ko'rish instituti muhim ahamiyat kasb etadi.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da har bir inson o'z huquq va burchlarini belgilash hamda unga qo'yilgan jinoiy aybning asosli ekanini aniqlash uchun uning ishi to'liq tenglik asosida oshkora va adolatning barcha talabiga rioya qilgan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega ekanligi demokratik huquqiy taraqqiyotning birlamchi shartlaridan biri sifatida alohida qayd etilgan.

2. Tadqiqot natijalari. Mahkumning protsessual huquqlari uning huquqiy maqomining markaziy va ajralmas elementi hisoblanadi. Ushbu huquqlar nafaqat milliy qonunchilikda, balki xalqaro huquq tizimida ham shaxsning adolatli sudlovga bo'lgan huquqining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Ilmiy adabiyotlarda (jumladan, M.L. Dobrynina qarashlarida) inson huquqlari shaxsning davlatga nisbatan egalik qiluvchi huquqiy talablari va imkoniyatlari majmuasi sifatida talqin etiladi⁵². Bu yondashuvdan kelib chiqib, mahkum ham, hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin ham, o'zining asosiy protsessual huquqlarini saqlab qoladi va ularni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

L.A.Shabalina ta'kidlaganidek, mahkum sudda hukm ijrosiga oid masalalarni ko'rishda qator muhim protsessual huquqlarga ega bo'ladi. Jumladan, u sudga taqdim etilgan materiallar bilan tanishish, sud muhokamasida ishtirok etish, iltimosnoma va e'tirozlar bildirish, tushuntirish berish, shuningdek, advokat yordamida o'z manfaatlarini himoya qilish huquqlariga ega⁵³. Bundan tashqari, amaldagi normalarga ko'ra, mahkum dalillar taqdim etish, sud qarorlari ustidan shikoyat qilish, protokollar bilan tanishish va ularga nisbatan e'tiroz bildirish kabi keng qamrovli huquqlar bilan ta'minlanishi kerak.

Xalqaro standartlar mazkur huquqlarni yanada keng va mazmunan boy tarzda belgilab beradi. Masalan, BMTning Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari, 1955 yilda Jenevada qabul qilingan, 2015 yilda qayta ishlangan)ga ko'ra, har bir mahkum sud organlariga murojaat qilish, shikoyat berish va huquqiy yordam olish huquqiga ega bo'lishi shart⁵⁴. Shuningdek, European Court of Human Rights amaliyotida mahkumning huquqlari adolatli sudlov huquqi (Article 6) doirasida himoya qilinadi va unga sud muhokamasida samarali ishtirok etish, advokat yordami olish hamda qarorlarni qayta ko'rib chiqish imkoniyati kafolatlanishi zarur deb hisoblanadi. Bu standartlardan kelib chiqib, mahkumni faqat jazo ijrosi ob'ekti sifatida emas, balki to'liq huquqiy sub'ekt sifatida ko'rish tendensiyasi shakllangan.

⁵² Добрынина М.Л. Теория прав человек. Уголовно-правовая характеристика личности виновного и ее значение. <https://www.apdp.in.ua/v55/37>

⁵³ Шабалина Л.А. К вопросу о процессуальных правах осужденного при рассмотрении и разрешении вопросов, связанных с исполнением приговора. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-protsessualnyh-pravah-osuzhdennogo-pri-rassmotrenii-i-razreshenii-voprosov-svyazannyh-s-ispolneniem-prigovora>.

⁵⁴ UN Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (Nelson Mandela Rules).

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda protsessual huquqlarning mazmuni va amaliy ahamiyatiga doir turli qarashlar mavjud. Masalan, H.L.A. Hart fikriga ko'ra, huquqlar nafaqat deklarativ normalar, balki real amalga oshirilish mexanizmlari bilan ta'minlangandagina haqiqiy qiymatga ega bo'ladi⁵⁵. Ushbu yondashuv mahkum huquqlariga nisbatan ham to'liq qo'llaniladi.

Yevropa davlatlari tajribasida mahkum huquqlarini ta'minlash masalasi, avvalo, European Court of Human Rights amaliyoti orqali shakllangan ustuvor standartlar bilan belgilanadi. Ushbu sud qarorlarida teng qurollar prinsipi (equality of arms), adolatli sudlov huquqi (fair trial) hamda samarali shikoyat huquqi (effective remedy) inson huquqlarini ta'minlashning fundamental kafolatlari sifatida qaraladi. Ayniqsa, Yevropa inson huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasiga muvofiq, har bir shaxs o'z ishining adolatli, ochiq va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishiga haqli hisoblanadi⁵⁶.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur standartlar turlicha talqin qilinadi. Masalan, J.Waldron o'z tadqiqotlarida qonun ustuvorligi faqat normativ baza mavjudligi bilan emas, balki ushbu normalarni qayta ko'rib chiqish va xatolarni tuzatish mexanizmlari bilan ta'minlangandagina haqiqiy mazmun kasb etishini ta'kidlaydi⁵⁷. Uning fikricha, apellyatsiya va kassatsiya institutlari bu odil sudlovning ichki tekshiruv mexanizmi bo'lib, ularsiz sud hukmlarining adolatliligi shubha ostida qoladi.

Biroq ushbu yondashuvga nisbatan tanqidiy qarashlar ham mavjud. Masalan, ayrim protsessualist olimlar (R. Posner, A. Ashworth) qayta ko'rib chiqish imkoniyatlarini cheksiz kengaytirish sud tizimi samaradorligini pasaytirishi va huquqiy aniqlik prinsipiga putur yetkazishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, har bir sud qarori doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lsa, huquqiy barqarorlik ta'minlanmaydi.

Shu nuqtai nazardan, ilmiy polemika ikki asosiy yo'nalishga ajraladi:

- **Inson huquqlari ustuvorligi konsepsiyasi** bu yondashuvga ko'ra, mahkumning huquqlari har qanday protsessual cheklovlardan ustun bo'lishi lozim. ECHR amaliyoti aynan shu pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Sud bir qator qarorlarida (masalan, *Delcourt v. Belgium*) apellyatsiya jarayoni ham adolatli sudlov talablariga to'liq javob berishi shartligini ta'kidlagan⁴.

- **Huquqiy aniqlik va samaradorlik konsepsiyasi** – bu pozitsiyaga ko'ra, sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish chegaralangan bo'lishi kerak, aks holda sud tizimi ortiqcha yuklamaga duch keladi.

Ammo zamonaviy tendensiyalar birinchi yondashuv ustun kelayotganini ko'rsatadi. Masalan, Yevropa davlatlarida mahkumning apellyatsiya va kassatsiya bosqichlarida ishtirok etishi, advokat yordami olishi va sud qarorlarini samarali tarzda shikoyat qilish

⁵⁵ Hart H.L.A. The Concept of Law. <https://scispace.com/pdf/professor-h-l-a-hart-s-concept-of-law-4fcwqlqabu>.

⁵⁶ European Convention on Human Rights, Article 6

⁵⁷ Waldron J. *Thoughtfulness and the Rule of Law*. Harvard University Press, 2023.

huquqi kafolatlangan. Bu esa mahkumni protsessual sub'ekt sifatida tan olishning muhim belgisidir.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda (J.Jackson, S.Summers) teng qurollar prinsipi amalda doim ham ta'minlanmasligi qayd etiladi. Ularga ko'ra, prokuratura va davlat organlari resurslari mahkumga nisbatan ancha ustun bo'lib, bu protsessual tenglikni buzadi⁵⁸. Demak, formal tenglik har d

J.Waldron fikriga ko'ra "Qonun ustuvorligi sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatisiz to'liq amal qilmaydi"⁵⁸. U qayta ko'rish institutlarini "sud xatolarini tuzatish mexanizmi" sifatida baholaydi.

R.Posner esa bu masalaga boshqacha yondashadi u Ortiqcha qayta ko'rish sud tizimining samaradorligini pasaytiradi va huquqiy aniqlikka zarar yetkazadi⁵⁹. Uning fikricha, apellyatsiya va kassatsiya chegaralangan bo'lishi kerak.

Bu yondashuvga ko'ra, har bir mahkumga cheklanmagan shikoyat huquqi berilishi kerak; sud qarorlari qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lishi shart; adolatli sudlov absolyut ustuvorlikka ega.

Bu pozitsiyani European Court of Human Rights amaliyoti qo'llab-quvvatlaydi. Sud bir necha qarorlarida apellyatsiya jarayoni ham adolatli sudlov standartlariga javob berishi shart, deb ta'kidlaydi. Ikkinchi pozitsiya: huquqiy aniqlik va barqarorlikka ko'ra sud qarorlari cheklangan holda qayta ko'rib chiqilishi kerak; huquqiy barqarorlik muhim; res judicata prinsipi ustuvor. Bu shuni ko'rsatadiki, mutlaq cheklanmagan qayta ko'rish tizimni izdan chiqaradi haddan tashqari cheklash inson huquqlarini buzadi. Demak, optimal balans zarur. Amaliyotdagi asosiy muammolar quyidagilar hisoblanadi: huquqlardan xabardorlik past, advokat yordami cheklangan, sud materiallariga kirish murakkab, shikoyatlar formal ko'rib chiqiladi, sudlar ko'p hollarda avvalgi qarorni tasdiqlaydi.

3. Xulosa. Xorijiy tajriba tahlilidan kelib qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqish mumkin.

Birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksi "Hukmlar, ajrimlar ustidan taftish tartibida himoyachi tomonidan shikoyat bildirish deb nomlangan JPK 512¹-modda bilan to'ldirilib, unda mahkumning huquqlarini himoya qiluvchi himoyachilarga davlat ayblovinu quvvatlovchi prokurorlarga protest bildirish huquqi bilan teng imkoniyatga ega bo'lgan shikoyat berish imkoniyatini yaratish

Ikkinchidan, sud nazoratini kuchaytirish, ya'ni yuqori instansiya sudlariga tergovda yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzish bo'yicha tergov va tezkor-qidiruv organlari zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklash huquqini beruvchi qonun normalarini kiritish;

⁵⁸ Waldron J. *Thoughtfulness and the Rule of Law*. Harvard, 2023.

⁵⁹ Posner R. *Economic Analysis of Law*. 2014.

Uchinchidan, mahkum huquqlari ko'p hollarda formal xarakterga ega bo'lib qolmasligini ta'minlash maqsadida, ularni real huquqlarga aylantirish uchun institutsional mexanizmlarni xalqaro standartlarga moslashtirish;

To'rtinchidan, advokatlarining vaqtini tejash va turli o'varagarchiliklarga chek qo'yish maqsadida, **Yuridik yordam axborot tizimini tegishli vazirlik va idoralarning** axborot tizimi bilan integratsiya qilgan holda, tergov hibsonalarida saqlanayotgan hamda jazoni ijro etish joylarida jazo o'tayotgan sudlanuvchi (mahkum)lar bilan uchrashuvlarni tashkil qilishga oid navbat olish tartibini raqamlashtirish maqsadga mavofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. Toshkent 2025. Adolat milliy huquqiy axborot markazi.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 22.09.1994 y. (o'zgartirishlar bilan). 2.1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil. <https://lex.uz/docs/7338189>
4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966 yil. <https://lex.uz/docs/2640479>
5. Dobrynina M.L. Teoriya prav chelovUgolovno-pravovaya xarakteristika lichnosti vinovnogo i yee znachenie. <https://www.apdp.in.ua/v55/37>
6. Shabalina L.A. K voprosu o protsessualnykh pravax osujdenного pri rassmotrenii i razreshenii voprosov, svyazannykh s ispolneniem prigovora. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-protsessualnyh-pravah-osuzhdenного-pri-rassmotrenii-i-razreshenii-voprosov-svyazannyh-s-ispolneniem-prigovora>.
7. UN Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (Nelson Mandela Rules).
8. Hart H.L.A. The Concept of Law. <https://scispace.com/pdf/professor-h-l-a-hart-s-concept-of-law-4fcwqlqabu>.
9. European Convention on Human Rights, Article 6
10. Waldron J. *Thoughtfulness and the Rule of Law*. Harvard University Press, 2023.
11. Waldron J. *Thoughtfulness and the Rule of Law*. Harvard, 2023.
12. Posner R. *Economic Analysis of Law*. 2014.